

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

Husanov Abdujabbor Xasanboyevichning

BERDAQNING FALSAFIY DUNYOQARASHI

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5220300 – Falsafa ta'lim yo'nalishi

Ilmiy rahbar:

fal.f.n., dos. Fayzixo'jayeva D.

TOSHKENT – 2011

MUNDARIJA:

KIRISH.....

I.BOB. Berdaq dunyoqarashining shakllanishi.

1.1. *Berdaqning hayoti va ijodi.....*

1.2. *Berdaq dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar.....*

II.BOB. Berdaqning falsafiy qarashlari.

2.1. *Berdaqning olamni bilish haqidagi qarashlari.*

2.2. *Berdaq inson va jamyat muammolari haqida.*

2.3. *Berdaqning adolatli jamyat haqidagi orzulari.*

XULOSA.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.....

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekistonning mustaqillikka erishib, yangi rivojlanish yo'liga kirganiga yigirma yil bo'ldi. Bu davr nisbatan vaqtni o'z ichiga olsada vatanimiz hayotning turli sohalarida ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Biz uchun an'anaviy bo'lib qolgan iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy turmushning yo'nalishlari o'z oqimini o'zgartira boshladi, hatto ta'riflar, tushunchalarga ham yangi zamonning keskin to'lqinlari, yangiliklari o'z ta'sirini ko'rsatmoqda, oldingi tasavvurlar asta-sekin yangi ahborotlar, bilimlarga o'z o'rnini bo'shatib bermoqda. Bu yangiliklarni inson bilimi oldidagi yangi-yangi talablarni qo'ymoqda, ularni aqliy va amaliy faoliyat uchun yangi vazifalarni keltirib chiqarmoqda. Darhaqiqat, Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilidlarga ega, ongli, tafakkuri, har hil "izmlar" dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlarga fuqorolik jamyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'lgan".¹

Milliy ongni, milliylik ruhiyatini mustahkamlashda xususan, milliy, madaniy, tarixiy merosni har tomonlama chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham ijtimoiy bilimlar sohasida ijod qiluvchi olimlarimiz xalqimizning boy merosini, ajdodlarimiz yaratib kelgan bebaho ma'naviy qadriyatlarni o'rganish ishiga asosiy e'tiborini kuchaytirmoqdalar. Ma'lumki, sovetlar davrida xukmron siyosiy va mavkuraviy talab asosida bunday masalalarga bir yoqlama yondoshish va buzib ko'rsatishlar xukmronlik qilardi. Bunday siyosat, mafkura va ular vujudga keltirgan g'oyaviy tamoyil va terminlarni yengib o'tish, yangicha erkin fikrlashga o'rganishning o'zi ham ma'lum vaqtni talab etadi. Buning uchun esa hozirgi falsafiy qarash durdonalari bilan qurollanishimiz kerak. Mana shundagina falsafiy fikrlar

1. Karimov I.A. Jamyatimiz mavkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin.T.:O'zbekiston, 1998.b.9.

taraqqiyotiga, diyorimizda yaratilgan tafakkur taraqqiyotiga, hozirgi zamon falsafasining asosiy muammolariga to'g'ri va xolisona baho bera olamiz.

Shuning uchun ham falsafiy muammolarni, falsafiy merosni tadqiq qilish doimo kun tartibida turuvchi asosiy masaladan biri bo'lib qolaveradi. Mazkur bitiruv malakaviy ish mavzuning aynan shu nuqtai nazaridan dolzarbdir.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Berdaqning ijodi I. Mo'minovning "XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida O'zbekistonda ijtimiy-falsafiy fikr rivoji tarixidan"² tadqiqotlarida, M.R. Nurmuhammedovning,³ R.Hudoyberganovning⁴ tadqiqotlarida o'rganilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari. Tadqiqotimizning maqsadi Berdaqning falsafiy dunyoqarashini tadqiq qilish.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quydagi vazifalarni qo'ydik:

- Berdaqning hayoti va ijodini yoritib berish;
- Berdaq dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillarni aniqlash;
- Berdaqning olamni bilish haqidagi qarashlarini tadqiq etish;
- Berdaqning inson va jamyat haqidagi qarashlarini ochib berish;
- Berdaqning adolatli jamyat haqidagi orzularining bugungi kunda ro'yobga chiqishini ko'rsatish.

Bitiruv malakaviy ishning obe'kti: Berdaqning ijodi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Berdaqning falsafiy qarashlari.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotning nazariy asoslarini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, Berdaqning adabiy asarlari, olimlarning ijodiga oid tadqiqotlari, turli yillarda nashr etilgan ilmiy- monografik risolalar, asarlar tashkil etadi.

² Mo'minov I. "O'zbekistonda ijtimiy-falsafiy fikr rivoji tarixidan" T. 1969.

³ Nurmuhammedov M.R. Бердах-великий поэт Каракалпакского народа. Т.1971.

⁴ Худойбергинов.Р. Мировоззрение Бердаха. Нукус.,1987.

Tadqiqotning uslubiy asoslarini obe'ktivlik, xolislik, sistemalilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, vorisiylik, umuminsoniylik va milliylikning o'zaro borligi, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillar va taraqqiyot g'oyasi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

- Berdaqning hayoti va ijodi holis o'rganildi;
- Berdaq dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar tahlil qilindi;
- Berdaqning insonning bilish imkoniyatlariga munosanati aniqlandi;
- Shoirning inson va jamyat haqidagi g'oyalarining insonparvarlik mohiyati ochib berildi;
- Berdaqning adolatli jamyat, oddiy xalq kelajagi haqidagi g'oyalarining ijtimoiy-ahloqiy mohiyati yoritildi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, uning xulosalaridan falsafiy-ahloqiy tafakkurni kengaytirishda, mustaqil fikrni kengaytirishda, falsafa tarixiga, adabiyotga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.

Bitiruv malakaviy ishi “Kirish”, ikki bob, to'rt paragraf, “Xulosa” va “Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati”dan tashkil topgan.

I.Bob. Berdaq dunyoqarashining shakllanishi.

1.1. *Berdaqning hayoti va ijodi.*

Berdaq hayoti haqidagi ma'lumotlar juda oz. Afsuski, shoirning tarjimai holi hozirgi kunimizgacha yetib kelmagan. Shoir haqidagi eng muhim ma'lumot detallarini o'z asrlarida ko'ra olishimiz mumkin. U o'zining "Umrin" nomli qo'shig'ida o'zining avtobiografiyasini qoldirgan. Bundan tashqari Berdaq haqida ba'zi zamondoshlari ham qisqacha ma'lumotlar qoldirgan. Lekin bular ham shoir tarjimai holi haqida yetarlicha ma'lumot bera olmaydi.

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq 1827 yili Orol dengizining janubiy sohilidagi "Oq qal'a" degan joyda kambag'al baliqchi oilasida dunyoga keldi. U joy hozirgi Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq rayoniga to'g'ri keladi.

Ota-bobolari qishloqning eng kambag'al odamlaridan bo'lgan, uyi ham, molu-mulki ham, amali ham bo'lmagan.

Uning otasi Qarg'aboyning birinchi xotini vafot etganidan so'ng u to'rtta yosh farzandlari bilan qoladi va o'zi bu bolalarni yolg'iz eplay olmasdi, shuning uchun unga bir turmush o'rtoq zarur edi. Bu kambag'al insonni uylanishi ham qiyin edi. Chunki u davrda kelinning qalin pulini beradigan sharoitda emas edi. U o'ziga o'xshagan bir kambag'al ayolni topib, uylandi. Uning ikkinchi ayolidan bizning taniqli shoirimiz dunyoga keldi. Uning uch aka-ukalari bor edi bular: Fozilbek, Berdibek, Kalibeklardir.

Shoirning hayotidagi hursandchilik, tug'ishganlari orasida uzoq davom etmadi. O'n yoshida u o'z yaqinlaridan ya'ni, ota-onasidan judo bo'ldi. Ko'p kishilik Qarg'aboy va Qoraqorali oilasi parchalanib, bir burda non va boshpana topish uchun har tomonga tarqalib ketadilar. Berdaqni, Qarg'aboyning akasi Qoshqarboy va uning o'g'li Nazarbiy o'z qaramog'iga oladilar. Bu yerda Berdaq ularni mollarini boqadi va uy ishlariga yordam beradi.

O'n yoshga yetganidan so'ng Berdaq, diniy maktabga boradi, maktabni tamomlaganidan so'ng esa u katta o'qishga ya'ni, "Qoraqum eshon" madrasasiga o'qishga kiradi. Ushbu madrasa Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan edi.

Berdaqning keying umri ham qashshoqlik, yo'qchilik bilan o'tgan. Shoir o'zining hayoti to'g'risida ko'p narsalar yozadi. Berdaq "Yoz kelarmi" degan qo'shig'ida o'zining turmush ahvoli haqida:

Yovganim yo'q ichmakka,
Ko'ligim yo'q ko'chmakka.
To'shak yo'q to'shamakka,
Sho'rli elga yoz kelarmi.

Cho'zilib yotar uyim yo'q,
Egnimga tortar kiyim yo'q,
To'qlardan bizga buyum yo'q,
Biz sho'rlikka yoz kelarmi.

deb yozadi. Mana bu parchadan Berdaqning turmushi qanday og'ir bo'lganini bilib olamiz. Shoir o'zining "Davron" degan qo'shig'ida: "Dunyoga kelib ko'p jafo chekdim, boshimdan qayg'u ketmadi, bir parcha non menga qayg'u bo'ldi, to'shagim tuproq, yostig'im kesak bo'ldi, mol-dunyom yo'q edi, umrim qayg'u kulfat bilan o'tdi" deb o'z zamonidan noliydi.

Shoir "Bilmadim" degan qo'shig'ida:

Kiyganim yamoq-yashiq,
Uning ham bor yeri teshik,
Dunyo menga bo'ldi qoshiq,
Ne bo'larimni bilmadim.—

deydi. Yana “Ko’rdim” degan qo’shig’ida:

Otim bo’ldi doim och,
Kiyimsiz qip-yalang’och.—

deb yozadi. Biz Berdaqning o’z asarlaridan va shoirni biladigan odamlarning so’zlaridan ham uning juda kambag’al bo’lganligini, mehnatkash xalq orasidan chiqqanligini ko’ramiz.

Bu yillar davomida Berdaq o’qish va yozishni o’rganadi. U yerda u o’z bilimini yanada oshiradi. Ziyrak xotira va mehnatsevarlik uning o’qimishli bo’lishi uchun unga juda katta yordam beradi.

Berdaqda yoshligidanoq shoirlik qobiliyati paydo bo’ladi va badiiy adabiyotga bog’lanib qoladi. O’sha paytlarda bo’lajak shoir ertaklarni, afsonalarni va mashhur shoirlarning she’rlarini eshitib va qiziqib yurar edi. Uning she’rlarni o’sha vaqtdagi mashhur baxshilar qo’shiq qilib aytardilar. O’zining “Ahmoq podshoh” asarida Berdaq o’zini ertaksevarligini aytgan. O’n ikki-o’n uch yoshida Berdaq asarlar yozishni boshlaydi, birinchi asrlari oddiy mavzulardan iborat bo’lgan. Keyinchalik esa u to’ylarda baxshi (qo’shiqchi) bo’lib xizmat qilgan.

Berdaq taxminan yigirma ikki yoshida muyten urug’idan ya’ni, kentay avlodidan bo’lgan Boymanqulning qizi Bibitxon ismli qizga uylangan. Bu xotindan to’rt qiz farzand tug’iladi, ularning orasida Hurliman birinchi qoraqalpoq ayol baxshi bo’ladi va yana ikki o’g’illi bo’lgan. Berdaqni ko’p nabiralari bo’lgan ulardan biri Hurlimanning o’g’li Qorajon, u ham baxshi bo’lgan (1957 yida vafot etgan). Qorajon onasidan qo’shiqchilik qobiliyatini meros qilib olgan va Berdaqning dutorida musiqa chalib qo’shiq aytgan. Bu dutorini ya’ni Berdaqni dutorini Qorajon Qoraqalpoq muzeyiga bergan.

Tez orada Berdaq mashhur baxshi shoir bo’ldi va o’z she’rlarida musiqa tuzdi. U Qoraqalpog’istonning katta to’ylarida, bayramlarida, ovul va

qishloqlarida xizmat qiladigan bo'ldi. Shoir O'rta Osiyoning o'sha vaqtdagi mashhur shaharlari: Xiva, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlarida bo'ldi. Bu yerlarda u tarixiy joylar bilan tanishib chiqdi.

Bundan tashqari shoir Xorazm o'zbeklari va qoraqalpoqlar orasida nomdor Kunxo'ja, Ajiniyoz bilan tanish edi, Otesh degan shoir bilan do'stona munosabatda bo'lgan. Muso baxshi bu shoirlar bilan o'z fikrlarini, adabiyot haqidagi fikrlarini, musiqani o'zaro ayirbosh qilardi, bu haqda Berdaq o'zining "Bo'lgan emas", "Mening hayotim" va "Muso baxshi"⁵ asarlarida yozgan. Mashhur shoirning hayoti kamchilik va qiyinchilikda o'tdi. Shuning uchun u biror bir daromad topish uchun hattoki, o'ziga yoqmagan insonlarga asarlarini kuylagan. Masalan: Qoraqum eshon madrasasida o'quvchilarga, bir qo'zichoq obraziga ular Berdaqni sevimli qo'shiqlarini aytishga majbur etishgan. Keyin ular shoirni aldagan va urib tashlashgan. Bu haqda Berdaq o'zining "Yaxshiroq" she'rida yozgan. Qattiq talab va sahiy pul mukofoti evaziga Berdaq she'rini o'zining qattiq kulgisi bilan mashur bo'lgan Kulenga bag'ishlagan, lekin u ham Berdaqni aldab ketgan. Bu haqda achchiq afsuslik bilan Berdaq o'zining "Bo'lgan emas" asrida yozgan.

Eshonlarda muruvvat yo'q,
Boy-biylarda adolat yo'q,
Fuqaroda sadoqat yo'q,
Xalq hech o'ynab-kulgan emas.

Ey yoronlar sirtim butun,
Bag'rim yonib bo'ldi tutun,
Zolim oshirib o'z haddin,
Aslo rahm qilgan emas.

⁵ Mirtemir tarjimasi "Berdaq tanlangan asarlar" O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.T.1956. 156-b

Bu dunyo-dunyo bo'lmadi,
Erkimizga hech qo'ymadi,
Dushmanning guli so'lmadi,
Tilagim hech bo'lgan emas.

Iste'dodli shoir, mashhur baxshi , o'sha davrning boylari va boshqa amaldorlari tomonidan taqib ostiga olinar edi. Uning ajdodlari va o'zi ham kambag'al bo'lganligi uchun ular shoirni yo'q qilmoqchi bo'lardilar. Shoir kambag'al oilada tug'ilganini o'zining "Bilgaysiz" degan asarida yozgan.

Og'a beklar, yoshim o'rta,
Aytmagayman so'zni jo'rtta,
Baxt izladim o'la-yo'rta,
O'ylab farqni bilgaysiz.

Og'a beklar, shoir bo'ldim,
Gul edim, sarg'aydim, so'ldim,
Dunyoga kelib ne ko'rdim,
Ohu-zorimni bilgaysiz.

Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon insoni bo'lishiga qaramasdan, o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurmatga ham ega bo'lmadi. Bu haqda u o'zining yuqorida keltirilgan "Bo'lgan emas" asarida yozgan.

Xullas buyuk shoirning taqdiri boylar, oxunlar, mullalar bilan qarama-qarshilikda o'tgan.

Shoirning “Ahmoq poshsho” degan dostonining bosh qismida ham o’z taqdiri haqida so’zlab bergan. Ushbu dostonda dushmanlari haqida ham yozgan.

Shunday qilib, Berdaq ko’p asarlarida o’zining fikrlarini, qiyinchiliklarni ko’rsatgan.

Hayotining oxirgi kunlarida Berdaq bir qizidan ayrildi. Qarilik chog’iga qaramasdan shoir asarlar yozishda davom ettiradi.

Uning yaxshi asarlari ”Ahmoq poshsho”, Bo’lgan emas”, “Bizlarga yordan ber” va boshqalari aynan shu yillarda yozilgan.

Tarixiy muammolarga shoir asosiy e’tiborini bergan, o’zining achinarli hayoti haqida yurtining xalq botirlari va qashshoqligi haqida yozgan. Bu yillarda yozilgan asarlar, asosan xalqning mustaqillik uchun kurashganligi haqida bo’lgan.

Shoir “Oydo’stbiy”, “Omongeldi”, “Ernazarbiy”⁶ va boshqa ajoyib asarlar yozgan, shoirning bu asarlarida, vatanparvarlik haqida fikrlarini bildirganini ham ko’rishimiz mumkin.

Berdaqning ko’pgina asarlarida hayotimizning haqiqiy tomonlari ko’rsatilgan, Xiva xonligining hokimligi paytlari va yurtning rus imperiyasiga qarshi kurashish ham eslatilgan. Berdaqning ijodiy faoliyati, biylarning, boylarning, otaliqlarning, eshonlarning, oxunlarning va boshqa katta ma’murlarning, ya’ni boshqalarning fikrlari va dunyoqarashlariga qarshi edi. Ular shoirni o’z tomonlariga og’dirmoqchi bo’ldilar buning uchun har qanday harakat qilishga tayyor edilar. Chunki, Berdaqning erkin va taqiqlangan asarlari xalqqa ta’sir qilishi mumkin edi. Lekin shoir o’z yo’lidan qaytmadi, shu sababli uni izidan taqib etganlar va u haqda Qoraqum eshonning ayg’oqchilari yetkazib turganlar. Bu haqda shoir o’zining “Oqibat”, “Bilmadim”, “Ber endi” degan asarida yozgan. U o’zining “Ber endi” degan she’rida quydagilarni aytgan edi.

⁶ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987.b 81-86.

Berdimurot, so'zla so'zni,
Dushmaningga tikib ko'zni,
Isxondirgil chog'lab o'zni,
Va'da ber endi, ber endi.

Chiqar bo'ldi jonim tandan,
So'rasangiz, xalqim, mandan,
Yaratgan, tilagim sandan,
Rahim qilgil zinhor endi.

Bu asarida shoir har bir aytgan so'zni nazarda tutish va ehtiyotkorlik bilan bu zamonda yurishni aytgan, chunki har bir qadamingni taqib etadiganlar bor deb yozgan. Berdaq jasoratli va fahm-farosatli bo'lishga harakat qiladi, qayerda va kimga nima deyish kerakligini biladi. Lekin uni taqib etganlar uning ijodiga rahna sola oldilar. Unga qarshi rahbariyat uning yozgan asarlarini ma'nosiz deb e'lon qildi va shoirning o'zini esa Ollohning yo'lidan qaytgan musulmonlar sirasiga kiritdilar.

Shuning uchun Berdaqning ko'pgina asarlari bugungi kungacha yetib kelmagan, lekin bunga qaramasdan u o'z she'rlarini yozilgan shaklida yaratgan. Bu haqda shoir har bir asarida eslatgan, hattoki qaysi yilda yozganini ham bildirgan. Masalan: "Ahmoq poshsho" asarida u bir yilu- o'n ikki oy davomida bo'sh vaqtini shu asarga sarf qilganini aytgan.

"Mening " degan asarida esa shoir o'zining baxtsiz hayoti haqida yozgan. "Mening hayotim" degan asarida shoir o'tgan hayoti haqida va bu yerda ham u asar qaysi yil yozilgani belgilangan.

Berdag she'rlarini yozilgan va to'plangan shakli yaratilganini yana bir ma'lumot e'tirof etgan, chunki uning "Kulen bois" degan asari bizni kunimizgacha yetib kelgan. Bu yerdan ma'lumki Berdaqning asarlari

butunlay yo'q qilinmagan balki, ularni ba'zilariga o'zgartirishlar kiritib yozilgan va saqlab qolingan.

Berdaqning hayoti davomida Qoraqalpog'iston tarixida ko'p hodisalar ro'y bergan, bu hodisalar xalqning kelajagiga va taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu Qoraqalpoq xalqining ozodlik uchun kurashi Ernazarbiylarning rahbarligida 1855-1856 yillarda qoraqalpoq, o'zbek, turkman va qozoq mehnatkashlarini kurashi haqida edi.

Berdaqni 1900-yilda Petro-Aleksandrovska shahriga Amudaryo bo'limi boshlig'i oldiga chaqirdilar, shoir bu taklifni qabul qildi va ixtiyoriy yo'lga tushadi. Ammo shoir yo'lining yarmida kasallikka duchor bo'ladi va uyiga qaytishda majbur bo'ladi. Birozdan so'ng esa shoir vafot etadi. Shuning bilan uning og'ir, azobli, baxtsiz hayoti tugaydi. Lekin uning hayoti jaf, azob-uqubatga qarshi, feodallar va boylarning o'zboshimchaliklariga qarshi kurash bilan o'tdi. U xalqni baxtli kelajagini o'ylab buyuk orzu bilan oldinga qadam qo'yayotgan edi.

Berdaqning o'limi xalqqa juda qattiq ta'sir qildi, ayniqsa, shoirning o'lkasida yashovchi mehnatkash xalqiga. Ko'p xalqlarning Berdaqga bo'lgan ajoyib va cheksiz sevgisini biz, XIX-asr qoraqalpoq shoiri Otesh Aminbey o'g'lining she'rida ko'rishimiz mumkin. Bu she'rlar Berdaqning o'limiga bag'ishlangan. Oteshning "Berdaqning o'limi"⁷ degan she'ri M.Yu. Lermontovning "Shoirning o'limi" degan she'riga o'xshaydi, bu she'rda Lermontov rus adabiyotining shoiri A.S.Pushkin haqida yozgan. Qoraqalpoq shoiri Oteshning aytishiga ko'ra, Berdaq vafot etganida marhumni qoraqalpoqlargina emas, o'zbeklar, qozoqlar, tatarlar va ruslar ham birgalikda oxirgi yo'lga kuzatib borganlar.

Berdaqqa qadar qoraqalpoq poeziyasida qo'shiqning tema turi 11 bo'g'inli—to'rt satrli, 9 bo'g'inli—to'rt satrli, 6 bo'g'inli—to'rt satrli turlaridan iborat bo'ldi. Berdaq ana shu uch turni uchchovidan ham

⁷ Худойберганов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987. 324 с.

foydalangan. Ayniqsa 9 bo'g'inli to'rt qatorli qo'shiq turini ko'p qo'lladi. Uni yana rivojlantirdi, ham voyaga yetkazdi. Bu to'rtlik ko'pchilik xalqning o'qishi uchun va aytishi uchun yengil va tushunarli edi. Shuning bilan bir qatorda, bu o'lchovlarni qofiya ham vazniga ko'p o'zgarishlar kiritdi. Berdaqning faqat lirik she'rlarining mohiri bo'lib qolmay, shuning bilan bir qatorda yirik poemalarni ham ustasidir.

Berdaq qoraqalpoq xalqining ulug' shoiri. Uning asarlarining tematikasi juda boy. Uning poeziyasida qoraqalpoq xalqining butun bir asr ichidagi ijtimoiy, siyosiy turmushning ochiq lavhasi gavdalanadi. Berdaq asarlarining asosiy mavzusi qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayoti, ayanchli og'ir turmushini kuylashga bag'ishlangan. U xalqning quvonchiga, qayg'usiga ham o'rtoq bo'lgan va shuni kuylagan "sahroning bulbuli"⁸ edi. Berdaq qoraqalpoq xalqining boshida siyosiy tengsizlik, zulmat, har taraflama zulm, adolatsizlik hukm surgan davrda yashadi va xalqni erkin turmush uchun kurashga chaqirdi, xalqning yaxshi o'g'illarini ardoqladi, yoshlarni odobli, bilimli, kamtar bo'lishga, xalq uchun xizmat qilishga chaqirdi. Xalq ishi uchun sadoqatli, sabrli, mard, botir bo'lishga, halol mehnatni sevishga chaqirdi. U hurmatli onalarni, qadrlil kelinlarni va yosh qizlarni erkin bo'lishini istab, xotin-qizlar ozodligini yoqladi. Berdaqning tili boy, xalqqa tushunarli edi. Berdaqning g'ozal mayda lirik qoshiqlardan boshlab, yirik asarlarning mazmuni ozod, baxtli turmush uchun kurashdan iboratdir. Shuning uchun ham qoraqalpoq xalqi uni juda sevadi.

1998-yilda mamlakatimizda Berdaq tavalludining 170 yilligi keng nishonlandi. Toshkent shahridagi xiyobonlarning biriga Berdaq nomi berildi va byusti o'rnatildi. Shoir tug'ilgan joy — Bo'zatovda ham Berdaq byusti o'rnatildi, Nukus shahrida Berdaqga haykal qo'yildi. Nukus davlat universitatiga uning nomi berildi.

⁸ Худойберганов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987. 115.с

Demokrat shoir, xalqning g'amxo'r kuychisi, hukmron sinflarni keskin fosh etgan, yuksak iste'dod sohibi, taraqqiyparvar mutafakkir, bilimdon muarrix o'z davrining solnomanavisi ulug' insonlar va internatsionalist, mohir so'z ustasi Berdaq Berdimurod Qarg'aboy o'g'li qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri xalq qalbida mangu yashaydi.

1.2. *Berdaq dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar.*

Berdaqning falsafiy fikrlari hamma asarlarida shunday ishlab chiqilganki, hattoki bizlar uning falsafiy fikrlarini dona-dona anglashimiz va umumlashtirishimizga majbur etadi. Uning asarlaridan shu narsa bizga ma'lum bo'ladiki, u o'z davrining haqiqiy insoni kabi musulmon o'quv yurtlarida ilm olgan asosan islomiy muhitda, jamyatda tasdiqlangan me'yor qonun qoidalarga rioya qilgan. Berdaq diniy inson edi, shuning uchun bir falsafa savoli javobsiz qoldi. Ya'ni xudo bu olamni yaratganmi, yoki abadiy mavjud bo'lgammi? To'rt element haqidagi ma'lumotni Berdaq Mirzo Bedilning (1644-1721) kitoblaridan o'qiganini bilsak bo'ladi. Berdaq Mirzo Bedilni, Navoiyni, Fuzuliyani, Aritotel va Platonni o'zining "Izlardim"⁹ degan asarida eslatgan. Berdaqning aytishicha u Bedilning hamma asarlari bilan tanishib chiqqan.

Chidam bilan bog'lab belni,
Izlab Qo'ng'iroq, Xitoyi elini,
Kechib daryo, dengiz, ko'lni,
To topguncha izlar edim....

Chor kitobdan nari qochdim,
Navoiydan savod ochdim,
Fuzuliydan durlar sochdim,
Donolarni izlar edim.

Ma'lumki ko'pgina mashhur arab faylasuflari, yunon faylasuflarining falsafiy merosi bilan ham yaxshi tanish edilar. Bazilari Aristotelni, Pifogorni, Platonni, Ptolomeyni va boshqa faylasuflarini ilmiy ishlarini arab va fors tiliga

⁹ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b 42.

tarjima qilganlar. Bunda eng muhim o'rinda faylasuflarimiz va olimlarimizdan ya'ni: Farobiy, Ibn-Sino va boshqalar bo'lgan.

Yunon faylasuflari Fales, Anaksiman, Anaksimandr, Geraklit va boshqalari stixiya materyalistlari bo'lganlar. Ular dunyo paydo bo'lishiga material substansiya asos qilib qo'ygan deb o'ylaganlar. Masalan: Fales "suv" ni asos qilib olgan. Anaksiman, Anaksimandr, Apeyron, Geraklit esa "olov"ni deb o'ylaganlar.

Berdaq esa hayotni xudo yaratgan deb o'ylagan, lekin bazan u bunga gumonsiragan, u shubhalangan uning hayoti oldindan aniqlanmaganidan, uning o'tgan hayoti, kelajagi, xursandchiliklari oldindan xudoning aytgani bilan uning taqdiri yozilganidan.

"Ahmoq poshsho" dostonida Berdaq ochiq ko'rsatganki, bu dostonning qahramonlari xonga qarshi urush qilishga qaror qiladilar chunki ularni xon bu ahvolga soladi va xonning o'zi shu darajaga yetkazadi. Xalq esa jabr-zulimga va qiynoqqa chiday olmay, xon, otaliq, biylarga qarshi urush qiladilar. Bu yerda Berdaq aytmoqchiki ularni xudo oldindan taqdirini yozmagan, balki xalqni shu darajaga xon keltirgan va xalq bunga chiday olmagan degan.

Ernazarbiy degan qahramon Berdaqning dostonida xalqi bilan birga mustaqillikka, ozodlikka erishish uchun Xiva xoni bilan kurasha boshlaydi. Quron bo'yicha taqdirimiz ollohning ihtiyori bilan hal bo'ladi, xonlar, podshohlar xudoning yer yuzidagi yordamchilari deb hisoblanardilar. Norozilik va odobsiz so'zlar aytish xonlarga, podshohlarga va ularning vazirlariga katta gunoh hisoblanardi.

O'zining "Xalq uchun" degan she'rida shoir Quronda yolg'on yozilgan deb hisoblagan chunki Quronda xudo xalqni yaxshi taqdir bilan tamin etadi deb yozgan. Bu haqda shoir bunday deb yozgan. Olloh xalqning dushmanlariga kuch bergan.

Maslan: Olloh yozgan taqdiri bilan biz yashaymiz va hech kim taqdirini o'zgartira olmaydi. Berdaq bunday javob yozgan "Isyon qilgan insonni xudo

ham oldini ololmaydi” Na xudo na shoh ham bu odamlarga ozodlik va baxt keltiraolmaydi, balki odamlarning o`zlari bunga erishishlari kerak deb aytgan.

Islom mafkurasi insonni shunday tarbiyalaganki, kimki xudo borligiga ishonsa va uning aytgan amallarini bajarsa haqiqiy musulmon bo`ladi. Xudo albatta adolatsizlikdan ranjigan bandasini yoniga keladi va o`z bandasini har doim suyishini shu bandada ham namoyon qiladi. Bandasini ranjitgan insonni esa, albatta jazolaydi. Berdaq esa bunga qo`shilgan va buni to`g`ri deb hisoblagan. U hayotiy ijtimoiy dalillarni misol keltirgan. O`zining “Bizlarga yordam ber” she`rida shoir xudoga murojat qilgan. Berdaqning aynan shunday xudoga murojat qilishi uni diniy odamlarni oldida oqlaydi. Chunki she`r xudoni unutmaganligini keyingi vaziyatlarda xudoni eslashini bu she`r orqali bildiradi. Berdaqning “ Bizlarga yordam ber” degan she`ri Umar Xayyomning ya`ni fors shoirining ruboisi bilan o`xshashlidir. Berdaq “Bizlarga yordam ber” degan asarida odamlarga, xalqqa, islomning boshqa tomonlarini ham ko`rsatgan. Ma`lumki o`z vaqtida Umar Xayyom ham shunday asarlari uchun uni mullalar va islomiylar tinch qo`yishmagan edi. Umar Xayyom din va uning urf-odatlarining ijtimoiy mohiyatini fosh etib, din hukmron doiralar, ruxoniylar qo`lida qul qilish quroli ekanini takidlaydi. Bu haqda u shunday deydi:

Masjidu, butxona qullik demakdir,
Qo`ng`iroq- tarona qullik demakdir,
Mehrobu kaliso, tasbehu salib,
Barchasi nisxona qullik demakdir.

Xayyom feodal tuzumga qarshi o`z noroziligini izhor etib, nahotki, adolatsizlikka asoslangan bu tuzumni xudo yaratgan bo`lsa, uni adolatli tuzum bilan almashtirish lozim deydi.

Bu she'rlarini bir o'qishda tub mohiyatiga tushinish qiyin edi. Shu sababli jamyatning hamma azosi ham bu she'rlarni o'sha davrda to'g'ri baholay olmaganlar. Shu asnoda bu kabi she'rlar ko'plab tazyiqqa uchragan.

Al-Kiftiyning XVIII-asrning yozuvchisi aytishicha "Bu mashhurlik Hayyom uchun o'linga aylanishi mumkin" deb aytgan. Bu shunchalik sezilardiki Xayyom Makkaga borishga majbur bo'ladi. Dushmanlari uni xudoga ishonmasligiga ayiblamasligi uchun. Berdaqni ham shu sababli ayiblamoqchi bo'lganlar.

Bundan tashqari Berdaq Navoiyning falsafiy qarashlarini yaxshi o'rgandan va o'z falsafiy qarashlarida o'xshashlik borligini bilgan edi. Chunki Berdaq ham Navoiy kabi har bir odam o'zi uchun tabiat tomonidan belgilangan yuksak vazifa va martabani anglagan holda ish tutishi kerak deydi. Uning yurish-turishi, xatti-harkati, maqsad va niyatlari insoniylikning baland darajasiga munosib bo'lishi shart. Shoir aytadiki inson qadr-qimmatini, shaxsiy fazilatlarini har narsadan ustun qo'yar ekan, inson zotiga mansublikning o'zi kishini ulug' qilishni alohida takidlaydi.

Bu haqda Navoiy ham quydagilarni takidlagan edi.

Kishilarning bir-birlariga munosabatlarida so'zning ahamiyati katta, chunki so'z san'ati faqat inson uchun ato etilgan. Insonning insonligi so'z bilandir. Hayvonlar so'zlashish imkoniyatidan mahrum. "Saddi Iskandariy"da Navoiy shunday yozadi:

Takallum bila kimsa inson erur,
So'zi yo'q bahoyimga ne son erur.

Shuning uchun og'izdan chiqayotgan so'z suhbatdoshga in'om etilayotgan gavhardek qimmatli bo'lsin. Yaxshi so'z bilan dushmanni rom etib, so'ng barcha murod-maqсадni hosil qilish mumkin deydi. Lekin hayotda so'zlarni

noto'g'ri qo'llash bir insonni hayotiga nuqta, bir insonni butunlay badnom qilib qo'yish hech gap emas degan edi.

Berdaq ham o'z asarlarida faqatgina insonni ulug'lab, uning ijobiy sifatlari qanday bo'lishini tasvirlabgina qolmadi. U o'z asarlarida tugal ma'nodagi ijobiy qahramonlar siymolarini ham yaratdi. Bu qahramonlarida mukammal insonga xos sifatlarni mujassamlashtirishga harkat qildi. U inson nomiga isnod keltiruvchi nomunosib shaxslarning qilmishlarini ayovsiz tanqid ostiga oldi. Masalan uning "Bu yil"¹⁰ degan qo'shig'ini olsak.

Tinch qo'ymayin shu holiga,
Odamni soldi yo'liga,
Haydadi ariq bo'yiga,
Og'irchilik bo'ldi bu yil.

Bordik qazuvga oziqsiz,
Kaltaklar edik yoziqsiz,
Bog'liqda turdik qoziqsiz,
Og'ir azob bo'ldi bu yil.

deb, xalqni boylar, beklarning arig'ini qazish uchun erksiz haydalganini yozadi, azob va uqubatlar ko'rganini aytadi. Berdaq Xiva xonlarini, amaldorlarni, bek, otaliqlarni ajratib o'tirmay "baribir, cho'chqa cho'chqani hech vaqt yorgan emas" deb yozadi.

Berdaq bu davrda qoraqalpoq beklari, otaliq va boylar tomonidan odamlarni mol o'rnida ishlatib, qo'shga qo'shganini, zolimlikning haddan oshganini o'zining ko'p qo'shiqlarida ochiqdan-ochiq yozadi. Shu vaqtdagi amaldorlarning, otaliq va beklarning xalqqa ko'rsatgan xusumatini Berdaq:

¹⁰ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987.b.34.

Qonli qilichin qayradi,
Xalqning qo'lini boyladi,
Odam qo'shib qo'sh haydadi,
Beklar zolim bo'lgan ekan.

O'z xalqini sodiq farzandi Berdaq, podshohni, xonlarni, umuman barcha oddiy xalqni ezuvchilarni yomon ko'radi, ularga la'nat o'qiydi, ularning xalqning ashaddiy yovlari, xalqni chaqadigan zaharli ilon-chayonlar deb biladi. U "Ko'rindi" degan qo'shig'ida shoir, xonlar va otaliqlardan qattiq nafratlanish bilan bunday deydi:

Odamga shafqatsiz jallod—beamon,
Elni ko'p yig'latgan otaliq va xon,
Boshlarga ko'p qayg'u soldi bu zamon,
Menga bari ilon, chayon korindi.

Berdag uchun ezuvchi- u boymi, otaliqmi, mullami baribir, ezuvchidir. Ularning bir-birovidan hech qanday farqi yo'q. Ularning barchasining maqsadi bir, xalqni talash, deb biladi. Shuning uchun ham Berdaq, xalqning ko'zini bo'yab, turli buzuqchiliklar qilayotgan mullarni, xo'ja va so'fiylarni qattiq tanqid qiladi. Masalan, "Xo'jam" degan qo'shig'ida eshakning dumini kesib, gunohsiz hayvonga azob bergan xo'janing iflos qilmishlarini aytadi: "Teskarichi" degan qo'shig'ida "aylanayin sallam sendan, hechkim gumon qilmas mendan" deb qariganda so'fiylikni parda qilib, turli jirkanch ishlar bilan mashg'ul bo'lgan mulla Mambetning sirlarini fosh qiladi:

Bu zamonning eshon, begi,
To'g'ri yurmaydi hech biri,
Shumlik bilan o'tar kuni

deb yozadi shoir.

Yana:

Birovlar och, birovlar to'q,
To'q odamning qayg'usi yo'q,
Och odamning uyqusi yo'q,
Buni to'qlar bilgan emas.

deb, kambagallar bilan boylarning orasidagi qarama-qarshilikni ochib tashlaydi. Xuddi o'sha qo'shiqda: “Zolimlarning jabri o'tdi, eshonlarda insof bitdi, beklarda oddiylik yo'q, mulla, eshonlar zolim bo'ldi”, deb yozadi.

Berdaq o'zining “ Soliq” degan she'rida mehnatkash xalqqa tushgan og'ir soliqni:

Bulturgidan bu yil yomon,
Qanday bo'ldi bu shum zamon.
Kambag'allar qolmay omon,
O'n tilladan keldi soliq.

deb, “g'arib, yetim qolmay hammasiga bir tekisda o'n tilladan soliq keldi, bu soliqni och, kambag'allar qanday to'laydi” deb qiynaladi, ularning og'ir ahvoliga achinib, qayg'uradi:

Menga hech gap, eshagim bor,
Sotib berarman bir bozor,
Attang, sho'rli och Ernazar,
Unga qiyin bo'ldi soliq.

U faqirning narsasi yo‘q,
Koshki qorni bo‘lsaydi to‘q,
Hattoki bir tovug‘i yo‘q,
Dovdiratdi uni soliq.

Shuning bilan bir qatorda, xalq ustiga qamchi o‘ynatib yurgan mahalliy eksploatorlarning jirkanch obrazini yarati:

Anov yurgandir Elmurod,
Ostida yomon ola ot,
Unga nedir bu saltanat,
Kishi xuni bo‘ldi soliq.

Amaldorlar Berdaqning qaynab toshuviga yo‘l bermadilar. Berdaq o‘zining ayanchli zamoni to‘g‘risida “Bo‘lgan emas” degan qo‘shig‘ida:

Qarag‘ay emas, sog‘it bo‘ldim.
Qari emas, yigit bo‘ldim.
Tog‘dan uchgan burgut bo‘ldim
Qo‘nar joyim bo‘lgan emas.

deb yozdi. O‘zining tor zamonda yashaganini, bulbul bo‘lib sayrolmaganini, erkin, yorug‘ dunyoni ko‘rolmaganlini aytadi.

Berdag, o‘zining “Zamonda” degan qo‘shig‘ida “bog‘loqlikdir bul zamonda qo‘llaring, Berimurot qiyin sening hollaring, ochilmadi sening yurgan yo‘llaring, armon bilan ketar bo‘ldin zamondan”, deb yozadi. O‘z xalqining chin o‘g‘li Berdaq, zolim xonlarni va ruxoniylarni butun borlig‘i bilan yomon ko‘rdi. Ularga umr bo‘yi la‘nat o‘qidi.

Beklar Berdaqni qancha quvg'inga olsalar ham, uni to'g'ri yo'ldan, mahnatkash xalqning og'ir turmushini kuylashdan, ko'pchilikni ozodlik uchun kurashga chaqiruvdan to'xtatolmadi va yo'qotib yuborolmadilar. Berdaq bundaylarga javoban:

Men o'ylayman so'zim yurar doimo.

Urug'i ko'p odam yovdan qo'rqarmi?

deb, o'zining va o'z asarlarining o'lmasligini aytadi.

Berdaq asarlarining yana bir xarakterli tomoni uning xalqparvarlik, demokratik, optimistik g'oyalaridir. U qancha og'ir va uqubatli turmushda yashasa ham, quvg'inga uchrasa ham, xalqning ishidan bosh tortmadi, kelajakdan umid uzmadi. Berdaq o'zining butun umrini, bor kuch-quvvatini, xalq xizmatiga bag'ishladi. Berdaqning armoni ezilgan xalqqa ozodlik, yorug' kun berishdan iborat bo'ldi.

Berdaq bu boradagi falsafiy qarashlarining shakillanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida gapiradigan bo'lsak, avvalo u qanday muhitda tug'ilganini, qanday muhitda yashaganini yana bir bor yodga olsak hato qilmagan bo'lamiz. Berdaq shoir, baxshi bo'lishiga qaramay o'z she'rlarida, qo'shiqlarida, falsafiy g'oyalarni ilgari surdi. Chunki uning falsafiy qarashlarini o'sha she'r, qo'shiqlarida ko'ramiz. Bunda qanday falsafa yotadi degan savolga esa, uning she'rlarini o'qigan inson biladi. Uning falsafiy g'oyasida olloxni borligiga ishonish, zolim amaldorlarni, otaliq boylarni bir kun kelib ollox jazolashini takidlab o'tadi. Qolaversa, Quroni Karimda insonlarini bu dunyoda bajarishi kerak bo'lgan amallarni barchasi bilan tanishib chiqqanligi uchun insoniyatni ulug'laydi. Shunda ham oddiy insonlarni ularni hayoti yaxshilanishi, farovon hayot kelishiga ishonib yashagan. Qolaversa, Berdaq yolg'onchilikni, oddiy xalqni ezib ularni boshiga og'ir kunlarni solgan insonlarni juda yomon ko'rgan va qattiq tanqid ostiga

olgan. Masalan: uning “Yaxshiroq”¹¹ nomli she’rida shu g’oya ilgari surilgan. Bu she’ri orqali shunday insonlarni barcha qilmishlarini ochib tashlagan, hattoki ularni nomlarigacha aytib, oddiy xalqqa ularni qilmishlarini fosh etgan. Bunday jasorat har qanday insonni qo’lidan kelavermaydi, lekin Berdaq shu ishni qildi va o’z maqsadiga yetdi deb ayta olishimiz mumkin.

Uning “Yaxshiroq” she’ridagi quydagi parchalarga bir e’tibor berylik.

Bu so’zimni eshit, Normurod oxun,
Sallangni o’raysan chiqarib shoxin,
Mehnatkashni aldab ko’pyeysan haqqin,
Sendan ko’ra ola qarg’a yaxshiroq.

O’rimbet, Nurimbet, Jalol, Sulaymon,
Safar, Mirza, Orzu, Erimbet—chayon,
Xalqning qonini so’rgan surbet, be vijdon,
Hammangdan bizday bir qashshoq yaxshiroq.

Berdag bu bilan uning falsafasi oddiy inson ekanligini, uning falsafiy qarashlarini shakllanishiga ham insoniyat ta’sir qilganligini ko’rsatib o’tdi. Lekin hamma insonlar bir hil bo’lavermaydi, ularning ham ichida yuqorida nomlari keltirilgan insonlar ham bo’ladi. Bu shu davr uchun achinarli hol albatta, tan olishimiz kerak. Shoir bu vaziyatda falsafiy yondoshdi va o’z falsafasini ochib berdi. Biz bundan bilamizki Berdaqning falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta’sir ko’rsatgan omillardan bittasi, uning shu davrda tug’ilgani, shu davrda yashagani, shu xalq orasida bo’lgani, bularni o’z ko’zi bilan ko’rib, boshidan o’tkazgani sabab bo’lgan deb hech ikkilanmay ayta olamiz.

¹¹Berdag. Tanlangan asarlar. T.1987.b.12.

II.BOB. Berdaqning falsafiy qarashlari.

2.1. *Berdaqning olamni bilish haqidagi qarashlari.*

Berdaq ham ko'pgina Sharq mutafakkirlari singari moddiy olamni, ruhni ko'rinish sifatida talqin etadi. Berdaq fikrisha, turli-tuman bir butundir. Berdaq tabiatga inson ko'zi bilan qaraydi. U insonni tabiatning oliy mahsuli hisoblab, uni ilohiylashtiradi. U buyuk shoir izidan borib inson qadr-qiymatini ulug'laydi. Tabiat boyliklari insonga hizmat qilishi kerak, - degan g'oyani ilgari suradi. Ilohiy kuchni e'tirof etgan Berdaq albatta, ateist bo'la olmas edi, biroq u din aqidalariga tanqidiy ko'z bilan yondashadi. U insonning narigi dunyo oldidagi qo'rqinchlardan ozod bo'lishini istaydi. U insonning haqiqiy baxt-saodati shu real dunyoda ekanligini ta'kidlaydi. Shuning uchun Berdaq narigi dunyoda baxt-saodat va'da qilgan din peshvolarini qattiq tanqid qiladi. Xalqni har tomonlama talagan, baxtsiz qilgan, ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qashshoqlashtirgan mutafakkir shoir sarira qamchisi bilan ayamasdan savalaydi, ularni qabihliklarini, razilliklarini ochib tashlaydi. Ularning hayotidagi haqiqiy basharasini: ma'naviy tubanligini, axloqiy buzuqligini dadil fosh etadi. Garchi Berdaq xalqni ta'magir so'fiylarni fosh qilib, ularni tanqid qilgan bo'lsada, o'zining din ta'sirida bo'lganligini inkor qila olmaydi.

Ma'lumki, Berdaq yashab ijod etgan davrda adolatsizlik, jaholat avj olgan edi. O'zboshimcha beklar, eshonlar va boshqalar o'zlarining shaxsiy manfaatlari yo'lida mehnatkash xalqni shafqatsiz ezar edi. O'z taqdirini jafokash taqdiri bilan chambarchas bog'lagan Berdaq shu davrdagi tuzumga befarq qarab tura olamadi. U o'z asarlarida o'sha davrdagi tuzumni ayamasdan tanqid qildi. Zolim beklar, insofsiz boylar, bosqinchi boylarga nisbatan o'zining fazab tuyg'ularini ifoda etgan.

Berdaq arzimagan narsalar uchun insonlar bir-birdan o'ch olish, o'ldirish, jarohatlarni nodonlik, ko'rlik belgisi deb hisoblaydi va bu kabi illatlarni xalq ommasining manfaatlariga zid deb biladi.

Bunday qarashlarni biz tukman adibi Maxtumqulining ijtimoiy falsafiy qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin. Maxtumquli ham bunday insonlarga quydagilarni aytgan edi.

Bir-birini chaqmoqlik emas erlikdan,
Bu ish shaytonlikdur, balki ko'rlikdan,
Og'zoralik ayirar elni birlikdan,
Bunda davlat ketib, dushmanga kelg'ay.¹²

Maxtumquli, turkman qabilalari birlashsa, unga hamla qilishga hatto tashqi bosqinchilar ham jur'at eta olmaydi, - deydi.

Maxtumquli tarqoq turkman qabilalarini markazlashtirgan bir davlat atrofida birlashtirish to'g'risidagi bu ilg'or fikrlari o'z zamonasi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega edi. Garchi uning bu orzu-umidallari o'sha davrda ro'yobga chiqmagan bo'lsada, o'z davri uchun katta tarbiyaviy hamyat kasb etganligi, shubhasiz.

Shundan ko'rinib turibdiki Berdaq ham, Maxtumquli ham o'z dunyoqarashlarida kelajakka ishonch ruhi bilan sug'orilgan. Ular jamiyatni kelajagiga ishonganlar.

Berdaq ijtimoiy-siyosiy qarashlarining yana bir muhim tomoni xotin-qizlarning jamiyatdagi tutgan o'rni masalasida ham ochiq-oydin ko'rinadi. Malumki, xotin-qizlarning rahimsiz ezilishi va kamsitilishiga o'tmishning qoloq, chirkin urf-odatlari, yaramas qonun qoidalari sabab bo'ldan edi. Xotin-qizlarning kamsitilayotganligini, ularning haq-huquqlari oyoq osti qilinayotganligini o'z ko'zi bilan ko'rgan, yurak-yuragidan his qilgan Berdaq

¹² Maxtumquli. "Tanlangan asarlar" O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, T., 1958, 225-bet.

bunday razolatga befarq qarab turolmadi, munis va muhtaram ayollarni himoya qildi. Berdaq xotin-qizlarni oiladagi, turmushdagi, umuman jamyatdagi o'zni xususida o'z zamonasi uchun juda ilg'or fikrlarni ilgari surdi. U xotin-qizlarni erkaklarning hamfikri, ularning kuchiga-kuch, quvvatiga quvvat qo'shadigan, hayotiga bezak beradigan jonkuyar hamroh deb biladi. U ayniqsa, ayollardagi odobu ikromni, soddalik va muloyimlikni, kamtarlik va oliyjanoblikni ulug'laydi.

Berdag ijtimoiy-siyosiy qarashlarida axloqiy masalalar ham katta o'rin tutadi. Uning pand-nasihatli she'rlari, zolimlikni, adolatsizlikni, takabburlik va maqtanchilikni, nomardlik va ikkiyuzlamachilikni qattiq qoralagan, yuksak isoniy ahloqni ulug'lagan. Shu sababli istedadli shoirning ijtimoiy mazmundagi asarlari uzoq zamonlardan beri O'rta Osiyo xalqlari shoir va baxshilarning dilidan chuqur joy olgan, ularga jo'shqin ilhom berib kelgan.

Berdag bu yorug' olamdagi jamiyati narsalar va ezigulik tamoyillari faqat inson uchun hamda uning yorqin kelajagi uchun xizmat qilishi kerak deb hisoblaydi. Tabiatdagi va jamyatdagi moddiy, ma'naviy hamda ma'rifiy boyliklar insonning bu hayotda yaxshi va mukammal yashashi uchun yartilgan deb takidlaydi. Bunday qarashlar qabimgi Yunoniston, Rim, Hind, Xitoy hamda o'rta asr va zamonaviy dunyo faylasuflarida ham ko'p uchragan.¹³

Olam yaratilgandan buyon uning nozu-ne'matlaridan inson bahra olib yashaydi. Berdag uchun narigi dunyo huzur- halovati va lazzatlaridan ko'ra bu dunyoni, ya'ni haqiqiy dunyoni ustun qo'yadi. Chunki u narigi dunyoning lazzatlanganligi haqidagi kafolatga unchalik ishonmaydi. Uning uchun xon ham, bek ham, amaldor ham, eshon ham, qashshoq xalq ham, hunarmand ham, darvesh ham inson sifatida teng bo'lishi zarur deb hisoblaydi.

¹³ Худойбергенов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987. 235.с.

2.2. Berdaq inson va jamyat haqida.

Inson va uning hayotidagi muammolar haqida Berdaqning asarlaridagi qahramonlarida ko'rishimiz mumkin. Chunki uning asaridagi qahramonlarni hayotlarlarini, har kungi bo'ladigan muammolari hal qilish bilan yashaganliklarini ifoda etgan. Ular o'z dushmanlari bilan har kuni, har daqiqa, har soniya kurashdilar. Chunki ularning baxtlari ular tomonidan qisib qo'yilgan edi. Ular mehnatkashlarni har yili qiynalib, ter to'kib qilgan mehnatlarini qadriga yetmasdilar balki, ularni hosillarini tortib olib boshlariga og'ir kunlarni solardilar. Ular bu hosilga erishish uchun inson qo'lidan kelmaydigan, inson zoti hayoliga sig'dirmaydigan tubanliklarni, razilliklarni qilardilar. Ular xudoga yaqin bo'lish uchun, balki baxt-saodatga erishish uchun, adolatga erishish uchun bu zolimlarga qarshi kurashadilar. Shoirning asarlaridagi qahramonlarni xalq juda sevardi. Lekin shoir boshqa muhabbatni nazarda tutgan ya'ni, so'fiy muhabbatini emas, oddiy xalq muhabbatini edi. Shoir ham oddiy xalq orasidan chiqqanligi va bu toifa insonlarini orasida yashagani, ularni ichki kechinmalarini his eta olgani bunga sabab bo'lgan. Shoir o'zining "Ber endi" degan she'rida esa oddiy xalqni o'z timsolida yoritib bergan.

Chiqar bo'ldi jonim tandan,
So'rasangiz, xalqim, mandan,
Yaratgan, tilagim sandan,
Rahim qilgil zinhor endi.

Bunda shoirni tanidan joni chiqayotgani, umrini oxriga qadar ham xalqni dardi bilan yashashoygani haqida ko'rishimiz mumkin. Shunda ham oddiy xalqni yodga olib olloxdan ularga baxt-saodat tilayotganini bildiradi. Shu davrdagi qiyinchiliklarni olloxga murojat qilib o'tmoqda.

Cho'ntagimda yo'q qora pul,
Qavmu qarindoshim bo'ldi qul,
Ular hali azob nuqul,
Yordam ber endi, ber endi.

Bu yerda esa Berdaq uning puli yo'qligidan, shu sababli uning qavmu qarindoshi zolimlar qo'lida qul bo'lganidan azoblanganligini aytib o'tmoqda. Bu holat shu davrda nafaqat Berdaqning oilasida balki, butun xalqni boshida shu kabi muammolar borligini, oddiy xalq naqadar azobdaligini aytib o'tmoqda. Endi ularni holi, butun umri azobda qolishini, ularga olloxdan yordam so'rab murojat qilgan ya'ni, ularga o'zining yordam ber bo'lmasa bu zolimlarni rahmi kelmaydi demoqda.

Berdaqning falsafiy dunyo qarashiga, odamlarning oddiy hayoti uning eng muhim savollaridan biri bo'lgan. U shoir, qo'shiqchi va hushchaqchaq inson edi, to'y marosimlarida eng aziz mehmonlardan biri edi. Bu Berdaqning shaxsiy fazilatlari edi.

Berdaq oddiy odamlarga o'xshab, bu hayotdan ko'z yumganidan keyin jannatga borishini o'ylamasdi. U shunday degan edi. "Bu noxaq, foniylar dunyoga kelganim, ozmi yoki ko'pmi yashayman, ammo bu kunlarni xursandchilik bilan o'tkazaman".

Shoir bu dunyoni noxaq degani bilan so'fiylikni tutgani yo'q ya'ni, u dunyo va bu dunyo haqida gapirgani yo'q, bu dunyoni noxaq degani, bu dunyoni odamlarini hayoti qisqa, shuning uchun har daqiqasini savobli ishlarga va xursandchilik bilan yashashi kerak degan edi. "Do'stlar qirq kun yosh to'kib yashagandan ko'ra, bir kun xursandchilik bilan yashagan yaxshi" degan edi.

Berdaqning og'ir turmush tarzi uning loqaydligidan emas, balki shu yo'lda, ya'ni haqiqat, adolat millat oldida boylikni emas o'z vijdonini qo'yganligi uchundir. U har doim oddiy xalq tamonida turib, ularning dardu

hasratlarini birga baham ko'rgan. Berdaq og'ir soliqlardan qiynalayotgan qashshoq xalqning ayanchli ahvolini ko'rib, quyidagi "Soliq" she'ri orqali hukmron tabaqa vakillarini tanqid ostiga olgan:

Menga hech gap, eshagim bor,
Sotib berarman bir bozor,
Attang, sho'rli och Ernazar,
Unga qiyin bo'ldi soliq.

U o'tirgan- Qulimbet boy,
Tayyor oldida oppoq moy.
Och xalq yurar topolmay joy,
Tuhmat bo'ldi ushbu soliq.

Oq namatli ulkan o'tov
O'z oldiga bo'lib atov,
Erman oxun turar anov,
Ularga ham yo'qdir soliq

Quyidagi satrlardan birida Berdaq "Attang, sho'rlik och Ernazar, unga qiyin bo'ldi soliq" satri orqali birgina Ernazar orqali hech narsasi yo'q butun xalqni ham nazarda tutmoqda. She'rda uchragan "Boy omon qoldi soliqdan", "U o'tirgan- Qulimbet boy, tayyor oldida oppoq moy", "Qur'on ochib, xalqni so'rgan Eshonlarga yo'qdir soliq", "Erman oxun turar anov, ularga ham yo'qdir soliq", "Anov yurgan Pirim cho'loq, o'lguday mumsik va yaloq, soliq yig'ishga shay shu choq" kabi satrlar orqali shoir hukmron tabaqaning adolatsiz tuzumini, ya'ni nega ma'lum bir tabaqa vakillari soliqdan ozod etiladi-yu, oddiy qashshoq xalq soliq to'lashi kerak? Ijtimoiy adolat va tenglik paymol bo'lgan. Boy va o'ziga to'q insonlar, amaldorlarning maddiy ahvoli

yaxshi bo'la turib, hech narsasi yo'q qashshoq xalq soliq to'lashi kerak deb uqtirmoqchi shoir.

Ma'lumki Berdaq buday eksik hayotga qarshi edi. Unga inson haqiqiy talab qilgan fikr bilan yashadi. Unga jannatning ezgulik va yorqin kelajagi kerak emas edi balki, faqatgina hayoti davomida oddiy xursandchilik bilan o'tadigan kuni bo'lsa bas edi. Berdaq shu bilan ham kifoyalanar edi. Shuning uchun ham Berdaq o'sha davrdagi amaldor sinflarga qarama-qarshi munosabatda bo'lgan. Bir tomondan oddiy xalqni orasida kuchayib ketayotgan ishsizlik va hukmron tabaqa vakillari tomonidan o'z molu-mulkini, boyligini, vaqtini qayerga sarf qilishini bilmaganlari uchun shoirning g'azabiga tegar edi. Berdaq diniy, so'fiy ma'lumotlariga qarshi edi. U rohat zaruriyatini tushunmas edi. U so'fiylarni xalqni tinchlantirish uchun aytgan gaplariga parvo ham qilmadi. Shoir katta feodallarning nohaqiqiy hayotini nafrat bilan xukum qilar edi. U kambag'al insonning beshona teri, mehnati bilan topgan oddiy nonini, boylarning asali bilan qarama-qarshi qo'ygan edi.

Tong sahar turib, terlab,
Qo'llaring asov bo'lsa ham,
Oyog'ing og'riqdan tinmasa ham,
Ammo sen o'z mehnating bilan topgan yog'och,
Asaldan ham shirin ko'rinar.

O'z mehnatin bilan topgan bir burda nonni ko'rib, inson zavqlanadi degan fikrida shoir o'zining "Nodon bo'lma", "Mening o'g'lim" degan asarlarida aynan shu mavzuga tegishli joylarini ko'rishimiz mumkin. Masalan uning "Nodon bo'lma" she'rida quydagi misralar mavjud.

Sening tenging emas amal,
Tushib oltin hovringdan sal,
Dalaga chiq, ketmonga gal,
Aqlingni yig', nodon bo'lma!

Belni bog'la, ketmonni ur,
Yormangni ich, kayfingni sur,
Ota-bobo yo'lidan yur,
Nodonlarday nodon bo'lma!

Bu yerda Berdaq bir yosh yigit haqida yozgan. Bu yigit o'sha davrda mehnatsiz, g'am-tashvishsiz, oson va oddiy hayot kechirishga harkat qilgan edi. Shoir bu yigitni odobga, mehnatga chaqirmoqda. Shu davrdagi amaldorlarni nodonligini shu bola orqali ommaga yetkazmochi bo'lgan shoir. "Sening tenging emas amal, tushib oltin hovringdan sal" degan misrasida esa amaldorlarni hokimiyat ularning ishlari emasligini, ularni joyi dalada ketmon chopishdan boshqa narsaga yarmasligini ko'rsatib bermoqda.

Berdag ilmni, ilm ahlini juda qadirlar edi. U ilm ahillari xalqga porloq kelajak, farovon hayot keltirishini aytar edi.

Qoraqalpoq xalqini bir maqoli bor edi. "Kuchli odam bir insonni epalshi mumkin, bilimli inson esa mingta odamlarni eplashi mumkin".

Shoir "Izlar edim" degan she'rida ilimning buyuk insonlarini eslatgan. Masalan: Navoiy, Fuzuliy va boshqalar. Bu odamlar o'z hayotini ilmga bag'ishlagan insonlar edi. Berdaq shu insonlarning falsafiy qarashlari bilan tanishib chiqdi va insoniyatga bo'lgan muhabbatini o'z asarlarida ochib berishga harkat qildi. Bundan tashqari, shoirning she'rlarida oddiy xalq hayoti haqqoniy aks ettirilgan edi. Uning "Xalq uchun", "Soliq", "Yoz kelurmu", "Bo'lgan emas"¹⁴ kabu she'rlarida mehnatkash xalq ommasining hayotidan olingan lavhalar mahorat bilan tasvirlangan. Bunda xalq boshiga tushgan musibatning ko'pchiligiga asosiy sababchi amaldorlar ekanligini aytib, ularning kirdikorlari ayovsiz fosh etilgan. Shoirning "Shajara", "Xorazm", "Omongeldi", "Oygo'stbiy", "Ahmoq podsho" kabi dostonlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan.

¹⁴ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b.25.

Masalan uning “Ahmoq podsho”¹⁵ dostonini oladigan bo’lsak bunda ham shoir o’z kechinmalarini bu dostonga solganligini ko’rishimiz mumkin. Chunki Berdaq bu dostonni bir yilda yozganini, yoshi ancha ulg’ayganini, va boshqa kechinmalarini aytib o’tgan.

Qarasam, yoshim yetibdi,
Tish tushib, ishim bitibdi,
Yigitlik boshgan o’tibdi,
Berdimurod, holingga boq.

Bu yerda shoir hayotda ancha narsani boshidan kechirganini va oq-qorani tanib, yaxshi –yomonni farqini bilish yoshidan o’tganligini ko’rishimiz mumkin. Hattoki tishlari tushib, bu dunyodan oxirgi kunlar va boqiy dunyodan esa daslabki kunlar boshlanishiga ishora qilib, aytgan edi. Mana bir zumda yigitlik davri ham o’tib ketganini bilmay qolganligini, hayoti davomidagi qiyinchiliklar, noxaqliklar, oddiy xalqning naqadar ezilganligini u o’z yigitlik davrida ko’rdi. Shu tashvishlar bilan yoshi ulg’ayganligiga hatto o’zi ham ishonmayotganini ko’rishimiz mumkin. Chunki shoir o’ziga “Berdimurot, holingga boq” demoqda bu narsa shoirning o’ziga naqadar ayanchli hol ekanligini, hattoki o’zi ham o’z holiga achinish bilan boqmoqda.

Ko’p yillar o’ylab yurgan so’ng,
Yaxshi-yomonni bilgan so’ng,
Yoshim ellikka kelgan so’ng,
Bu qissaga tilim urdim.

Bu yerda shoir bu dostonni ko’p yilgi hayotiy tajribaga tayangan holda yozilganini aytmqda. Biz shu yerda yana bir narsaga e’tiborimizni

¹⁵ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b.91.

qaratishimiz kerak chunki, shoir bu qissani yoshi ellikka kirganida boshlaganini bilib olamiz. Bu yerda ham shoir haqidagi ma'lumotlarni bilib olishimiz mumkin. Bu narsa yuqorida aytib o'tganlarimizni isboti hisoblanadi.

Qissaga bog'lab uyimni,
Zor bilan chertib kuyimni,
Ham so'yib yolg'iz qo'yimni,
Shu dostonni yozdim boshlab.

Bu yerda esa Berdaq bu dostonni yozishdan oldin yaxshi tayyorgarlik bilan boshlaganligini aytdi. "Ham so'yib yolg'iz qo'yimni"¹⁶ deganida esa bu yerda Berdaq hech qanday ochlik tashvishini qilmay, shu ishga qattiq bel bog'laganligini aytgan.

Endi bu asardagi asosiy voqeaga etiborimizni qaratsak, bu ikkinchi qismda esa dostondagi asosiy voqealar haqida gap ketadi. Bunda ko'tarilgan mavzu zolim xon haqida bo'ladi. Masalan: u haqida quydagilarni aytgan edi shoir.

Otadan ham zolim bo'ldi,
Yurtga darrov ma'lum bo'ldi,
Qon oqib limmo-lim bo'ldi,
O'ta manman bo'lgan ekan.

Bu zolim xonning taxtga kelmasidan oldin uning otasi ham shu davlatning hukmdori edi. U ham zolim shox bo'lgan. U vafot etganidan so'ng mamlakat taxtiga uning o'g'li keladi. U taxtga kelganidan so'ng otasidan ham zolim ekanligini, shoir yuqoridagi misralarda bayon qilmoqda. So'ngra mamlakatda parokandalik avjiga chiqqanligi, insonlarni qoni ko'p oqqnligini, oddiy xalq ko'p jabr ko'rganligini ta'kidlamoqda.

¹⁶Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b. 92.

Xon tinglamas yurtning zorin,
Toptar edi nomus-orin,
Kimning qizin, kimning yorin,
Zo'rlik bilan olar edi.

Bu misralarda shoir o'sha zamondagi zolim xonlarni naqadar tubanliklarga borganligini ko'rsatib bermoqchi bo'lgan shu misralar orqali. Bu xonlar xalqqa zulim yetkazgani yetmaganday, hotin-qizlarni nomusini toptab, ularga ham azyat yetkazganligini ko'rib, bilib olamiz. Bu yerda ham biz o'sha davrdagi real hayot muammolarini, insoniyatga naqadar o'gir bo'lganligini ko'ramiz.

Asarda Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko'rmaydi. Agar men o'gil farzandli bo'lsam, uni vorsim deb tayinlayman va u mening naslimni davomchisiga aylanadi degan edi. Oradan yillar o'tdi, so'ngra uning eng kichik qirq birinchi xotini qizli bo'ladi.

“Qiz tuqqanni keltiring tez !
Qizi bilan o'ldiring tez!
Aytganimni bo'ldiring tez!...”
Amri shunday bo'lgan ekan.

Podshoh qiz farzand ko'rganligidan g'azablanib, xotini va qizini o'ldirishni buyuradi. Bu yerda ham muqaddas ayol zotini shunday zolim xonlardan aziyat chekkanini ochib bermoqda. Bu yerda ham insoniylik muammolarini yana bir bor ko'rishimiz mumkin. Tan olish kerak bunday zolim shoxlar bo'lgan bu hayotda. Shoir ular ham olloxning bandasi ularni qiz yoki o'g'il deb ajratmaslik kerak deb takidlaydi.

Dono cho'ri ayol Zaruning¹⁷ uddaburonligi tufayli ular omon qoladi. Qiz Gulzor ulg'aygach, ota-onasini borib ko'rmoqchi bo'ladi. Majbur bo'lgan Zaru, unga haqiqatni aytadi. Keyin Gilzor otasini ko'rmoqchi bo'ladi, axir xon uning otasi u hammani tushunadi deb o'ylagan bo'ladi. Bir kuni u xonning bog'iga chiqadi, uni ko'rgan xonning odamlari xonga bir go'zal qiz bog'da sayohat qilayotganini aytadilar. Xon u bilan uchrashadi. Ahmoq podsho o'z qiziga oshiq bo'lib qoladi. U Gulzorni gapiga quloq solmay uni bag'riga bosadi va unga uylanmoqchi bo'lganligini aytadi. Bundan g'azablangan Gulzor, podsho taklifini rad etadi. Bundan g'azablangan xon qizni shafqatsizlarcha uradi va uni itlarga talatib, o'ldirishni buyuradi. Eng vahshiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi va hech narsa qilmaydilar. Aksincha, ular tilga kirib, podshoni qarg'aydi. Berdaqning asarida itlar ham gapiradi va ular xonga vijdotsizligi haqida aytadilar. Xonning odamlari uni o'rmonga tashlab keladilar. Gulzor uzoq vaqt podsho ko'zidan yashirinib, o'rmonda yuradi. Zaru uni qidirib topadi va xonning qo'lidan qochgan bir yigitga topshiradi. So'ngra ular turmush quradilar. Ular o'rmonda xonga qarshi chiqqan va xonning qo'lidan qochganlarni topadilar. Keyin esa ular birlashib, xonga qarshi hujum qiladilar. Zindondagi odamlarni ozod qiladilar, xonning xotinlarini ozod qiladilar. Xonni boshini tanasidan judo qiladilar. Mamlakatda erkinlik, tenglik, osoyishtalik bo'ladi. Odamlar o'z yurtiga qaytadilar. Shunday qilib Berdaqning "Ahmoq podsho"¹⁸ dostoni o'z nihoyasiga yetadi.

Asarning mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Ahmoq podsholarga o'xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchi bo'lishi haqida yozgan. Qolaversa, shoirning "Qolmadi" degan she'rida ham bunday zolim insonlarini qilmishlarini, oddiy xalqqa naqadar qiyin bo'lganligini ochib bermoqda. Masalan:

¹⁷ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b.100.

¹⁸ Худойбергенов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987. С.253

Boyu eshon, begu mulla,
To'g'ri yo'ldan yurmas aslo,
Shumlik bilan yig'ar dunyo,
Nomusu ori qolmadi.

Bu yerda ham shoir eshon, mullalarni halollik bilan boylik orttirmasligini, hattoki boylik orttirish uchun or-nomuslaridan ham voz kechiga qadar borishini bildirib otadi. Bunday insonlar umr bo'yi faqat boylik orttirish istagida har qanday insoniyat tasavvuriga sig'dirmaydigan qabih ishlarga qo'l uradi deb aytib o'tadi. Berdaqning har qanday sharoitda to'g'ri so'zlashni yoqtirgan inson hisoblanadi. Chunki uning she'r va dostonlarini o'qiganimizda, insonlarning turmush hayoti, o'sha zamon haqida qanday bo'lgan bo'lsa, shunday yoritib berganini bilamiz.

Qolaversa, shoir o'zining "Yoz kelurmi" degan she'rida ham o'zining inson va real hayot haqidagi falsafiy qarashlarini ochib bergan.

Ochlikdan quriydi tomoq,
Ovqatimiz qora baroq,
El dilida bitta so'roq :
Fuqaroga yoz kelurmi?

Bunda endi shoir "yoz kelurmi?" deb aslida "yoz" faslini nazarda tutayotgani yoq. Bu yerda shoir zolim amaldor va boylarning zulmi qachon tugaydi? Oddiy xalq qachon yayrab, yashnab, ozodlikda yashaydi demoqchi bo'lgan. Yana o'sha davirni shoir qaxraton qishga qiyoslamogda chunki, qishda qishloq joylarda yashash biroz og'irlashadi va bu she'rda ham xalqni ahvoli har doim qishdagi kabi og'ir ahvolda ekanligini ko'rsatib bermoqda.

2.3. Berdaqning adolatli jamyat haqidagi orzulari.

Berdaq xalqni boylarning yomon munosabatlaridan qutqarish haqida chuqur o'ylagan, uning hohish-istagi, boylarni mehnatkash xalqga ya'ni, oddiy xalqga bir xil munosabatda bo'lishlarini istagan. Ularga haqiqiy inson baxtini, adolatli munosabatda bo'lishlarini va ular muhtoj bo'lgan narsalarga erishishlarini hohlagan. Xalqning obyektiv va subyektiv muammolari ya'ni, bu zamonning muammolari shoir uchun ko'pgina qiyinchiliklar yaratgan. Shu sababli shoir uzoq vaqt davomida mehnatkash xalqning mustaqilligi haqida fikrlagan. Obyektiv qonunlar, qiyinchilik bilan bog'langan munosabatlar, avlodlarning aloqalari, diniy ishontirishlar, bular hammasi boylarning ustidagi bir niqob bo'lgan. U niqob ostida hamma haqiqatlar yashiringan edi. Shuning uchun o'zining ko'p asarlarida masalan: “Bo'lgan emas”, “Yoz kelurmi” va boshqalarida shoir xalqni hohishi hech qachon amalga oshirilmaganini, kambag'allar uchun hech qachon yoz kelmaganligi haqida yozgan. Boylar, feodallar kambag'al xalqqa hech qachon tinch yashashga imkoniyat bermaganlar. Bu zamonda osmon qora bulutlar bilan qoplangan edi. Oddiy mehnatkash xalq har doim hayotiy muammolarga duchor bo'lardi va bu qorong'u dunyondan chiqishga eshik topolmasdilar deydi shoir.

“Bo'lgan emas”¹⁹ degan she'rida shoir bunday deb yozgan:

Qora bulut osmonda
Baxtsizlikka yo'qdir oxir,
Kambag'allar hursandchilikni,
Hech qachon ko'rgan emas.

Bu she'rida shoir kambag'allarning bir orzusi bor edi deb yozgan, lekin ushbu orzu “yomonlikni oxrini ko'rish” edi ammo, bu orzu amalga oshirilmadi.

¹⁹ Miremit tarjimsi “To'plangan asarlar”. O'zbekiston falak akademiyai nashiryoti.T.1956. 77-bet.

Shoir bu zamonni qushlar uchun to'r deb atagan. Bu to'rni hech kim ochishni, qushlarni ozodlikka chiqarishni hohlamasdi. Haqiqatdan ham, shoir bu to'r nimadan to'qilganligini oldin bilmasdi, uni qanday yirtishni bilmasdi, ichidagi qushlarni ozod qilish uchun bu to'rni yo'q qilish eng katta orzularidan biri edi. Ammo shoir harkat qilardi va o'z umidini bundan uzmasdi.

U boshqa olimlar singari o'sha zamonning zolim insonlarni, boylarni, feodallarni shartlariga bo'ysunmaganligi uchun uning hayotida tushunmovchiliklar bo'lgan deb o'ylaydi.

Berdaq Navoiyga, Fuzuliyga, Maxtumluliga²⁰ va boshqalarga o'xshab, odamlar bir-birlariga hurmat ko'rsatishi kerak, bir-biriga yomonlik qilmasligi kerak deydi. Balki, uning o'rniga g'amxo'rlik qilish, vijdonli bo'lish, o'z xalqiga foyda keltirishi kerak deb o'ylagan.

Berdaq o'zining "Xalq uchun" degan she'rida xalqi va o'lkasi haqidagi fikrlarni bildirgan. Bu asarida Berdaq, xalq bir-biriga yaxshi munosabtda bo'lsa hammasi o'zgarishi mumkin degan.

Bundan tashqari u xalqdan o'z bilimini oshirishini, hunarmandlik qobiliyatini oshirishini so'rardi chunki, insonning bu qobiliyatlari xalqqa va o'lkasiga katta yordam bo'ladi deb bilgan. Shoirning o'ylashicha, bilim insonni tushunadigan, biron bir ishning masalasiga, muammosiga to'g'ri yechim topadi deb aytgan va o'zi ham shunga ishongan. Bunday insonlar yomonlik qilishga ko'ngli bo'lmaydi, qo'li yomon ishlarga bormaydi degan. Bilim insonni tarbiyalaydi, insonni yaxshi tomonga o'zgartiradi, aqilli va bilimli insonlar be'mani ishlar qilmaydi va xalqning fikriga qarshi chiqmaydi deb o'ylagan. Bunday ajoyib fikrlar shoirning "Xalq uchun", "Yaxshiroq" degan asarlarida yozilgan.

Xullas, odamlarning bir-biriga yaxshi munosabatda bo'lishi, donishmand bo'lishi, hunarmandlikni rivojlantirishi, xalqning yurti uchun g'amxo'rliqi xalq uchun katta yutuq bo'ladi degan Berdaq. Qolaversa, yana

²⁰ Maxtumluli. "Tanlangan asarlar" O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti, T., 1958, 142-bet.

shoir oddiy xalqning bahodir yigitlariga, mard erkaklariga ham bir qancha ibratli soʻzlar aytgan. Shulardan biri- u xalqiga manabu soʻzlar bilan murojat qilgan:

Shering yuragi bilan tugʻilgan yigit,
Umringni xalqinga sarfla,
Oʻz xalqing uchun na olovdan, na suvdan qoʻrqmagin.

Maʼlumki, Berdaq juda ham havotirlangan, qoraqalpoq biylarining orasidagi anglashmovchilik uchun Xiva Xonligiga qarshi chiqqanlarida. Berdaqning “Shajara” degan dostonida bizlar shoirning avlodlar bir-biriga qarshi chiqqanliklari uchun havotirga tushganini koʻrishimiz mumkin.

Shuning uchun Berdaq, odamlarning bir-biriga yaxshi munosabatda boʻlishni, hunarmandlikni rivojlantirishni, odamlarning bilimdon boʻlishini, xalqiga yaʼni, yurtiga teglik olib keladi degan. Shoirning oʻylashicha, avlodlarning birligi yaʼni, mustaqillik uchun kurashlari xalqqa va yurtga katta yutuq olib keladi va qoraqalpoq yurtini saqlaydi deb aytgan.

Shoirning bir orzusi bor edi u ham xalqiga hizmat koʻrsatish boʻlgan. Xalqning mard oʻgillari oʻz xalqi va yurti uchun bor kuchini berishlari, kerak boʻlsa, jonini ham berishlari lozim degan. Bu haqda biz Berdaqning quydagi soʻzlaridan bilib olamiz. “Oʻz tugʻilgan yurting uchun, sen ham yashab ham oʻlishing zarur, oʻz yurtingni baxti uchun hizmat qilgin, bundan ham ortigʻi nima boʻlishi mumkin” degan edi.

Buyuk vatanparvar, yurtining qahramonlarini oʻz xalqiga hizmat qilishlarini aytgan, ammo boylar va feodallar Berdaqni soʻzlariga hech ahamiyat bermaganlar, ular uchun shoirning sheʼrlari sariq chaqaga ham arzimasdek tuyulardi ularning nazarlarida. U paytda hokimyat donishmand insonlarni taqib ostiga olar edi.

Berdaqning xalq va uning bilimdon, adolatli sardori haqidagi fikrlari uzoq vaqt davomida oddiy xalqning orasida yangragan. Shoir oʻtgan

kunlarining tarixini o'rganib chiqqan, tarixdagi ma'lumotlarni, xalq qo'zg'alonlari haqida, xonlar va feodallar haqidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqqan edi. Shoir o'z xalqini boshida adolatli shoh yoki xon bo'lishini istardi.

Bu asar yozilgandir,
Kambag'alning hayoti notinch,
Zamon kunda-kun o'zgarar, yomon tomonga
Adolatli podishoh kelarmu?

Shoirning bu to'rtligi bilan u zamonni o'zgarishiga umid bog'laganligini va bu umidi hech qachon so'nmaganligini bilib olamiz. Shoir o'zining "Shajara" dostonida Chingizxonga ezgulik munosabatida bo'lgan, u Iskandar Zulqarnaynga o'xshan qattiqo'l bo'lgan. Sharqning badiiy adabiyotida ular bilimdon, adolatli bo'lganliklari yozilgan.

Bir tomondan shunga e'tibor berishimiz kerakki, bu adabiyotlar o'sha davrning boylarining, juda ko'p hattotlarning qo'llaridan o'tgan. Bu yerda ular badiiy adabiyotda juda ulug'langanlar.

Qoraqalpoq folklorida "Alpomish" "Masposho" va boshqa dostonlar bor. Bu dostonlarda qahramonlar ham bahodir, ham podsho yoki xon bo'lganlar. Ular esa adolatli, bilimdon va xalqni sevuvchi, yurti sevuvchi xalqning boshliq insonlar timsolida gavdalanganlar.

Qoraqalpoqlar haqidagi dostonlar tahsirida, Berdaq qahramonlar, botirlar haqida ozu qiladi. O'zining "Izladim" degan she'rida shoir bu orusini berkitmagan balki, uni ochiq ayta olgan. Shoir shu she'rida shunday yozgan edi.

Sherdek yuragi bor, haqiqiy qahramonni izladim,
Quyinni qilmishi o'ldirar, yigitni g'urur o'ldirar,
Agarda "Edige va Alpomish" tirilganida,
Men ularni izlab topardim.

-degan edi.

Edige- tarixiy qahramon, XV asrning boshida Oltin O'rdaning amiri bo'lgan. Qoraqalpoq "Edige" dostonida u To'xtamish xonning qo'lida ko'pgina azob chekkan, lekin dostonida u adolatli amir deb yozilgan. Ammo o'zining qattiq qo'lligi bilan Edige o'zi haqida inkor hotiralar qoldirgan. Shuning uchun dostondagi ma'lumotlar to'g'ri kelmaydi. Edige (1352-1419) No'g'ay O'rdaga asos solgan. 1399- yildan Oltin O'rdaning boshlig'i, 1408- yilda Rusga hujum qilgan, 1419- yilda hayotdan ko'z yumgan.

Chingizxon (1155-1227)²¹ taniqli tarixiy shaxs, mo'g'il imperiyasini asoschisi, xoni bo'lgan. Osiyo xalqiga va Yevro'paning sharqiy tomoniga hujum qilgan. Ammo bu Chingizxon haqidagi ma'lumotlar to'g'ri va haqiqatdir.

Podshohlarning tarixi haqida, ularning janglari haqida ularning o'zlari ishongan yozuvchilari yozar edi. Ular esa podshohga, xonga yoqadigan ma'lumotlarni yozishga majbur edilar. Ko'p vaziyatlarda podshohlarning buyruqlari bo'yicha ularning hayoti haqida va ular istagan narsalari haqida yozganlar. Ko'p olimlarning asarlari, shoirlarning she'rlari va yozuvchilarning ko'p tarixiy ma'lumotlari podshohlarning buyruqlari bo'yicha yo'q qilinardi chunki, ular xalqni to'g'ri yo'ldan uradi deb hisoblangan.

Badiiy adabiyotning dostonlar, asarlari Xiva va O'rta Osiyoning boshqa xonliklarida, va Rus mustabid tuzumi davrida bunday adabiyotlar yo'q edi, agarda paydo bo'lsa ham yo'q qilinardi. Uni yaratgan shoir yoki yozuvchi va uni o'qigan odamlar ham yo'q qilinardi. Shuning uchun u davrda yurt madaniyat va ilmiy markazlardan ayrilgan edi.

Berdaq erkinlikga erishish uchun har tomonlama yo'llarni topishga harkat qildi. Xalqning erkinligi haqida o'ylab, u o'zining afsonaviy qahramonlarini ko'radi. Masalan: "Omongeldi" va "Asan" "Ernazarbiy"lar²²

²¹ Худойбергенов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987.с325.

²² Худойбергенов К. Мировоззрение Бердаха. Нукус, 1987.с.245.

edi. Berdaq qoraqalpoq xalqi Xiva xonligiga qarshi chiqqanligini manzur ko'rgan. Ularga "Ernarbiy" boshliq bo'lgan. Ernazarbiy deganda shoir Ernazarga hurmatini ko'rsatgan. Shu dostonlari bilan Berdaq, Xiva xonlariga o'z nafratini ko'rsata olgan. Berdaq oddiy xalqdan juda havotirlangan edi. U o'zining va xalqining achinarli o'tmishini o'yalab, xalq hayoti davomida haydalardi, qayerda bo'lmasin ularga hujum qilishardi, ularni beayib jazolashardi degan edi. Qozoq kichik juzlari va XVII-XVIII asrlarda Xiva xonlari millatlarni bir biri bilan munosamatlarini buzishga harakat qilardilar.

Xullas, o'zining eng taniqli asarlarida "Omongeldi", "Oydo'stbiy", "Ernazarbiy", "Bo'lgan emas", "Xalq uchun", "Yaxshiroq" kabilarida Berdaq xalqning erkinligi uchun uning kelajagi uchun kurashganligini yozgan. Bu asarlardagi har bir so'zlar har qanday insonga ta'sir qilmasdan iloji yo'q. Shoirning chin qalbidan aytgan so'zlar, xalqning o'tmishi va keljagi haqida hammaga birdek ta'sir qiladi.

Buyuk shoir, xalqning porloq kelajagi haqida o'ylagan inson, o'zining bu harakatlarida bir qator qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. O'zining "Izladim"²³ degan sherida shoir o'zining ichidagi g'amlarini ya'ni o'zining dardlarini ko'rsatgan. Xalqi uchun erkin kelajagi haqida orzu qildi. Bu she'rida shoir o'zini xalqning porloq va buyuk kelajagi uchun hamma qiyinchiliklarga tayyor ekanligini ko'rsatgan. U o'z xalqining erkinligi, ozodligi, porloq va buyuk kelajagi uchun Hindiston, Suriya, Dog'istonga, Rossiyaga borishga ham tayyor hattoki, odam oyog'i tegmagan tog'larga ham borishga rozi boladi. Unga faqatgina haqiqat topilsa bo'lgani u hamma qiyinchiliklarga chidaydi.

Berdag "Chor kitob" bilan hech qanday aloqa qilishni hohlamaydi. U Navoiyga, Fuzuliyga, Maxtumluliga, Firdafsiyga, Platonga, birinchi navbatda Olloxga murojat qiladi. U o'z savollariga javob izlaydi, shu zindondan, qafasdan qanday chiqish yo'llarini topsa bo'ldi, baxtga erishish yo'li qayerda ekan deb o'z savollariga javob izlaydi.

²³ Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b.43.

Shundan ko'rinib turibdiki Berdaqning oddiy xalqning kelajagi to'g'risidagi fikrlari juda to'g'ri va bunday ozodlik zamon kelishiga ishongan va bunga umid bog'lagan.

XULOSA

Barchamiz bir narsaga e'tibor berishimiz kerakki, Sharq ilmiy tafakkuri o'sishiga tarixda ko'pgina iste'dotli, yetuk va jahon hamjamiyati e'tiboriga tushgan mutafakkirlar ulkan xissa qo'shganlar. Ularning ilmiy, falsafiy, badiiy va ijtimoiy yutuqlari ham o'z navbatida G'arbdan keskin farq qiladi. Aytmoqchimizki, Sharqda o'ziga xos ilm yo'li shakllanib kelgan.

XIX-XX asrlarda ko'pgina fikru-dunyosi keng va jahonga mashxur shaxslar yashab o'tgani ma'lum. Garchi bu davrlarda G'arbga nisbatan rivojlanish oqsayotgan bo'lsada, yetuk insonlar talaygina yetishib chiqqan edi. Bunday yetuk insonlar qatoridan alohida o'rin egallagan siymo, shubhasiz bu qoraqalpoq adibi Berdaq hisoblanadi.

Bu mutafakkir merosini o'rganishimizdan maqsad esa ilm, ma'naviyat peshvosi, ruhiy murabbiyimiz, oddiy xalqning bulbuli, bo'lib kelayotgan yetuk shoir bo'lmish Berdaq, tariximiz va ma'naviyatimizning ajralmas qismi ekanligini yanada teranroq anglash, hamda uning ijodiyotini o'rganish davlatimiz yosh avlodlarining ongu-shuurini tarbiyalashda muhim omil ekanligini bilishdan iboratdir.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda quydagilarni ko'rib chiqishga harakat qildik:

Birinchidan, Berdaq yashagan davrni yaxshiroq anglash va shoir haqida to'g'ri xulosa chiqarish uchun u yashab o'tgan davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy muhitiga to'xtalib o'tildi;

Ikkinchidan, Berdaqning hayoti va ijodiga ta'sir etgan elementlarga alohida to'xtalib o'tildi;

Uchunchidan, ushbu faylasufning ayrim she'rlaridagi falsafiy g'oyalarning mazmun-mohiyati ochib berildi;

To'rtinchidan, Berdaqning she'r va dostonlarining mohiyati, tarixi, o'rganilishi, ahamiyatiga e'tibor qaratdik.

Beshinchidan, Berdaqning asarlaridagi ko'tarilgan g'oyalarni naqadar dolzarbligini ochib berishga harkat qildik.

Berdagning she'r va dostonlaridagi ko'tarilgan falsafiy g'oyalarida o'sha davrga, keyingi va bugungi davrlarga ham xos dolzarb masalalar borligini ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun ham ushbu faylasufning ijtimoiy- siyosiy qarashlari keyingi davr xalq ijodkorlariga samarali ta'sir ko'rsatgan.

Berdag shaxsini juda hurmat bilan tilga oladilar, uning falsafiy g'oyalarini, uning she'r va dostonlarida chuqur ma'no-mazmun mujassamligiga va uning falsafiy dunyoqarashi zamonidan ancha ilgarilab ketganligiga tan beradilar.

Chunki uning falsafiy g'oyalarining asosida inson turganligi, insoniyatni naqadar ulug'laganligi, ularni erkin fikrlashga chorlaganligi, ozodlikka erishishga bo'lgan jasoratini ko'rsata olganligi va insoniyatni bu dunyoda yaxshi yashashga undaganligi bunga misol bo'la oladi.

Uning adolatli jamiyat haqidagi fikrlari bizning hozirgi yashayotgan kunimizni orzu qilganligidan dalolat beradi. U bunday zamon kelishiga ishongandi, biz buni Berdaqning oddiy xalqning kelajagi haqidagi fikrlaridan bilib olamiz.

Uning bunday falsafiy dunyoqarshi hozirgi kunimizdagi demokratik tamoyillarga mos keladi. Chunki inson omili, adolatli jamiyat, odil hukumat rahbari va dinning to'g'ri talqin etilishi ayni demokratiyaga xos bo'lgan xususiyatlardir. Shunday ekan uning ijodini ma'naviy kamolatimizni shakllantirish uchun, ayniqsa, barkamol avlodning axloqiy, ruhiy, diniy hamda ma'naviy sifatlarini o'stirish uchun muhim andoza qilib olsak bo'ladi. Qisqasini aytganda, Berdaqning ijod namunalarini hech qachon eskirmaydigan falsafiy g'oyalar fikrlar jamlanmasi deb atasak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov.I.A, “Buyuk maqsad yo’lidan og’ishmaylik”. T.: O’zbekiston-1993.
2. K a r i m o v .I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. Toshkent, O’zbekiston, 1996.
3. K a r i m o v .I.A. Yangicha fikrlash – davr talabi. Toshkent, O’zbekiston, 1997y.
4. Karimov .I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida.Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” T.O’zbekiston.1997y.
5. K a r i m o v .I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent, O’zbekiston, 1998.
6. K a r i m o v .I.A. Ma’naviy yuksalish yo’lida. Tarix, ma’rifat, ma’naviyat, Toshkent, «O’zbekiston», 1998y.
7. Karimov .I.A.Barkamol avlod orzusi T.:2000y
8. K a r i m o v I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, O’zbekiston-2008
9. Falsafa qomusiy lug’at, Toshkent, Sharq- 2003.
10. Abdullayeva.M.H, Abdurashidov.M, Abilov.U, va boshqalar. Falsafa qisqacha izohli lug’at. T.: Sharq-2004.
11. Ahmedova.M. Falsafa (darslik), T.: 2006.
12. Mirtemir tarjimasi “Tanlangan asarlar” Fanlar akademiyasi.T.:1956.

13. Umar Xayyom. “Ruboiylar” Fanlar akademiyasi. Toshkent. 1960.
14. Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература
М.:1965.
15. И.Сагитов. Бердахтын творчествосты. Нукус. 1977.
16. Бердах. Танламалы шыгармалар жыгынагы. Нукус. 1977. стр.
99.
17. “O’zbek adabiyoti tarixi” T.: Fan-1978
18. Т.Изимбетов. Ислам и современность. Нукус. 1978. Стр. 104-105.
19. С.Камалов. Каракалпаки в XVIII- XIX вв. «Фан». Ташкент. 1980.
стр. 197.
20. Бердах. Избранное. Ташкент. 1980.стр. 30.
21. Х.Салимов. Насление Средней Азии. Ташкент. Изд. «Узбекистан»
1981, стр. 77.
22. Из философского наследия народов Востока. Изд. «Фан» Уз.
Ташкент. 1982.
23. “O’rta Osiyo xalqlari hurfikrligi tarixidan” T.: Fan-
1990..
24. O’zbekiston milliy enstiklopediyasi, Toshkent,
O’zbekiston-2002y
25. Falsafa qomusiy lug’at, Toshkent, Sharq- 2003.
26. Abdullayeva.M, Abdurashidov.M, Abilov.U va
boshqalar, Falsafa qisqacha izohli lug’ati, Toshkent,
Sharq-2004.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <http://www.geocities.com/bolatkhan/adebietstories.html>
2. http://www.berdaq.com/Contact_us/2.jpg
3. <http://www.kitap.net.tr/berdaq.php>.
4. <http://www.proteus2001.narod.ru/use>
5. <http://rapidshare.com/files/4663668/berdek.rar>
6. http://rapidshare.com/files/6404042/berdaq_Ahmoq_podshojvu.rar
7. <http://www.peoples.ru/art/literature/poetry>
8. <http://www.ref.uz>
9. <http://www.ziyonet.com/IbrohimYusupov> maqolasi.
10. <http://www.islom.uz>.

Himoyaga ruhsat berildi:

Dekan:

fil.f.n.,dots. Ziyomammedov J.T

Kafedra mudiri:

fal.f.n.,dos. Po'latova D.A.